

## JAMIYATDA TILNING IJTIMOIIY STRATIFIKATSIYASI: YOSH, JINS VA STATUS OMILLARI

**Norboboyeva Munajat Oybek qizi**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti ingliz tili 2-fakulteti 2-bosqich talabasi*  
[munajatnorboboyeva3@gmail.com](mailto:munajatnorboboyeva3@gmail.com)

**Ilmiy rahbar : Rahmonova Sardora Muminjanovna**

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi*  
[sardorarakhmonova@gmail.com](mailto:sardorarakhmonova@gmail.com)

**Annotasiya:** Mazkur maqolada tilning jamiyatdagi ijtimoiy stratifikatsiyasi, ya'ni tilning turli ijtimoiy qatlamlar tomonidan har xil shaklda qo'llanishi masalalari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor tilning yosh, jins va ijtimoiy maqom (status) omillariga ko'ra farqlanishiga qaratiladi. Maqolada o'zbek tilining misolida tilning ijtimoiy tabiatini ochib berish, shuningdek, sotsiolingvistik omillarning til taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sotsiolingvistika, ijtimoiy stratifikatsiya, yosh omili, jins omili, status omili, til variatsiyasi, jamiyat, ijtimoiy mavqe.

**Annotation:** This article analyzes the social stratification of language in society, that is, how language is used differently by various social groups. The main focus is on how language varies according to age, gender, and social status factors. The article also examines the social nature of the Uzbek language and discusses how sociolinguistic factors influence language development.

**Keywords:** sociolinguistics, social stratification, age factor, gender factor, status factor, language variation, society, social position.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается социальная стратификация языка в обществе, то есть различное использование языка представителями разных социальных групп. Основное внимание уделяется тому, как язык отличается в зависимости от возраста, пола и социального статуса. В статье также анализируется социальная природа узбекского языка и влияние социолингвистических факторов на развитие языка.

**Ключевые слова:** социолингвистика, социальная стратификация, возрастной фактор, гендерный фактор, фактор статуса, языковая вариация, общество, социальное положение.

### Kirish

Til jamiyat hayotining eng muhim unsurlaridan biridir. U insonlar o‘rtasidagi aloqa, tafakkur, madaniyat va ijtimoiy munosabatlarning asosi sanaladi. Til jamiyatda mavjud bo‘lgan barcha ijtimoiy qatlamlar, rollar, munosabatlar bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli tilni o‘rganishda uning ijtimoiy tabiatini tahlil qilish zarur bo‘ladi. Tilning ijtimoiy xususiyatlarini o‘rganadigan soha — sotsiolingvistika. Ushbu fan tilning ijtimoiy muhitda ishlatilishini, turli ijtimoiy omillar ta’sirida tildagi farqlarni, ya’ni tilning ijtimoiy stratifikatsiyasini o‘rganadi. Bu tushuncha jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarining tilni turlicha qo‘llashini anglatadi. Masalan, shahar aholisi bilan qishloq aholisi, yoshlar bilan keksalar, erkaklar bilan ayollar, o‘qituvchilar bilan ishchilar nutqi o‘rtasida aniq farqlar mavjud. Bu farqlar tilning ijtimoiy tabaqalanishini ifodalaydi.

### Asosiy qism

"Ijtimoiy stratifikatsiya" tushunchasi sotsiologiya fanidan kirib kelgan bo‘lib, u jamiyatdagi tabaqalanishni — sinf, kasb, boylik, mavqe, ta’lim darajasi kabi farqlarni anglatadi.

Tilshunoslikda bu tushuncha tilning ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida farqlanishini bildiradi. Har bir ijtimoiy guruh tilni o‘z ijtimoiy tajribasiga, madaniyatiga, dunyoqarashiga qarab qo‘llaydi. Tilning ijtimoiy tabaqalanishi faqat lug‘aviy yoki talaffuzdagi farqlarda emas, balki nutq madaniyati, muloqot uslubi va kommunikativ xulq-atvorda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, bir xil so‘zni turli ijtimoiy guruh vakillari turlicha ohangda, turlicha maqsadda ishlatishi mumkin. Bu holat til orqali nafaqat ma’lumot, balki ijtimoiy munosabat va madaniy qadriyatlar ham uzatilishini ko‘rsatadi. Sotsiolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insonning tildan foydalanish uslubi uning ijtimoiy tajribasi, ta’lim darajasi, mavqei va jamiyatdagi roli bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli tilshunoslar ko‘pincha “til — jamiyat oynasi” degan iborani ishlatadilar. Chunki jamiyatda mavjud ijtimoiy qatlamlar, kasbiy sohalar va madaniy darajalar tildagi farqlar orqali o‘z aksini topadi.

Tilning stratifikatsiyasi fonetik, leksik va stilistik darajalarda namoyon bo‘ladi:

7. Fonetik farqlar: talaffuzdagi o‘ziga xosliklar (masalan, Toshkentcha “bo‘pti” o‘rniga “bo‘ldi”).

8. Leksik farqlar: so‘z tanlashdagi farqlar (“pul” — “so‘mcha”, “naqd”, “dollar”).

9. Uslubiy farqlar: rasmiy, so‘zlashuv, kasbiy yoki yoshlar tili shakllarida ifodalanadi.

Tilning ijtimoiy tabaqalanishi jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanish bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, har bir qatlam o‘z nutq madaniyatiga ega bo‘ladi. Tilning ijtimoiy stratifikatsiyasida yosh omili alohida o‘rin tutadi. Har bir yosh avlod tildan o‘z davri, ehtiyoji va madaniy muhitiga mos ravishda foydalanadi.

1) Yoshlar tili (sleng) — tildagi eng dinamik qatlamlardan biridir. U tez o‘zgaradi, yangi so‘zlar va iboralarni o‘z ichiga oladi. Masalan: “Zo‘r”, “krutoy”, “layk bosmoq”, “kreativ”, “ignor qilmoq” kabi so‘zlar. Yoshlar nutqida ijtimoiy tarmoqlar, texnologiya va pop madaniyat ta’siri kuchli. Bu jarayon tilni boyitadi, ammo ba’zan adabiy me’yordan uzoqlashtiradi.

2) O‘rta yoshdagilar tili - bu qatlam odatda rasmiy me’yorlarga yaqin, lekin hayotiy tajriba asosida so‘zlashadi. Ular ish joyida adabiy tildan, oilada esa so‘zlashuv tilidan foydalanadi. Bu ikki qirralik stilistik moslashuv deb ataladi.

3) Keksa yoshdagilar tili. Keksalar nutqida adabiy, bosiq va ehtiyotkor ifodalar ustun: “Marhamat”, “rahmat sizga”, “bolam”, “iltimos”, “xo‘sh”. Keksalar tili milliy madaniyat va an’anaviy qadriyatlarning saqlovchisi sifatida ahamiyatga ega.

Qolaversa, til erkak va ayollar nutqida turlicha namoyon bo‘ladi. Bu tafovutlar madaniy stereotiplar, tarbiya, jamiyatdagi gender rollar bilan bog‘liq. Masalan, ayollar nutqida yumshoqlik, odob, iltifot, tuyg‘usi kuchli bo‘ladi: “Voy, qanchalik chiroyli!”, “Kattakon rahmat”, “iltimos”, “eh, bechoragina!” Ayollar ko‘proq ifodali, emosional tildan foydalanadi, ular muomala etiketasiga e’tiborliroq. Erkaklar tili esa odatda qisqa, qat’iy, ba’zan buyruq ohangida bo‘ladi: “Yur ketdik!”, “bo‘ldi”, “mayli”, “xo‘p”. Erkaklar nutqi ijtimoiy kuch, rahbarlik, qat’iyat timsoli sifatida qabul qilinadi. Bu farq gender lingvistika doirasida o‘rganiladi. Til insonning jamiyatdagi o‘rnini ham aks ettiradi. Kishi nutqidan uning ta’lim darajasi, kasbi, iqtisodiy holatini aniqlash mumkin.

- Oliy ma’lumotli shaxslar: adabiy, ilmiy, rasmiy tildan foydalanadi. Masalan: *“ijtimoiy muloqot”, “nutq madaniyati”, “sotsial muhit”*.

- Ishchilar, oddiy xalq vakillari: so‘zlashuv tili, argo yoki dialektdan foydalanadi. Masalan: *“gap yo‘q”, “otvet berish”, “ishlar joyida”*.

- Kasbiy jamoalar esa o‘z “jargon”lariga ega. Masalan, o‘qituvchilar, haydovchilar, shifokorlar orasida o‘ziga xos so‘zlar mavjud.

Tilning bu jihati jamiyatdagi kasbiy tabaqalanishni ham aks ettiradi.

Til ijtimoiy tabaqalanish bilan bir qatorda madaniyatning ham ko‘zgusidir. Madaniy qadriyatlar, urf-odat, e’tiqod, dunyoqarash tilda o‘z aksini topadi. Masalan, o‘zbek tilida kattalarga hurmat, suhbatda muloyimlik, so‘zning ijtimoiy mosligi muhim ahamiyatga ega. Bu holat shuni ko‘rsatadiki, til ijtimoiy stratifikatsiya bilan birga madaniy stratifikatsiyani ham ifodalaydi. Til — bu nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini ifodalovchi hodisadir. Tilning ijtimoiy stratifikatsiyasi yosh, jins va status omillari bilan chambarchas bog‘liq.

Yosh omili tildagi yangilanishni ta'minlasa, jins omili nutq madaniyatiga ta'sir qiladi, status esa nutq me'yori va uslubini belgilaydi. Shu bois tilni o'rganishda uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasini e'tiborga olish muhimdir.

Tilni ijtimoiy jihatdan o'rganish — nafaqat lingvistik, balki madaniy va sotsiologik tahlilni ham talab etadi. Bu yondashuv jamiyatdagi muloqot madaniyatini yuksaltirish, tilni boyitish va milliy qadriyatlarni saqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tilning madaniyat bilan uzviy bog'liqligi shundaki, har bir xalqning tili uning mentaliteti, tarixiy xotirasi va turmush tarzini o'zida mujassam etadi. O'zbek tili misolida buni yaqqol ko'rish mumkin: xalq orasida “so'ziga qarab insonni tanish” degan fikr bejiz aytilmagan. Bu fikr til orqali insonning tarbiyasi, madaniy saviyasi va ijtimoiy mavqeini aniqlash mumkinligini bildiradi. Masalan, o'zbek jamiyatida kattalarning ism-sharifini bevosita aytmaslik, ayollarning odobli so'zlardan foydalanishi, salomlashish va minnatdorchilik madaniyatining rivojlanganligi — bularning barchasi til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tasdiqlaydi. Tilning ijtimoiy va madaniy stratifikatsiyasini o'rganish bugungi globallashuv sharoitida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki xorijiy tillar ta'siri ostida tilimizda yangi leksik birliklar paydo bo'lmoqda, so'zlashuv uslubi o'zgarib bormoqda. Shu jarayonda milliy tildagi madaniy qadriyatlarni saqlab qolish, adabiy me'yorni himoya qilish va tilni ijtimoiy jihatdan uyg'unlashtirish muhim masalaga aylanmoqda. Sotsiolingvistika bu jarayonlarni ilmiy tahlil etish orqali jamiyatdagi muloqot madaniyatini takomillashtirish, til siyosatini shakllantirish va madaniy identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Zero, tilning stratifikatsiyasini tushunish — bu jamiyatning ichki tuzilmasi, ijtimoiy qadriyatlari va madaniy o'zligiga nazar tashlashdir.

### **Xulosa**

Shunday qilib, til jamiyatdagi barcha qatlamlarni bog'lovchi, ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettiruvchi va madaniyatni avloddan avlodga yetkazuvchi eng muhim omildir. Har bir avlod tildan foydalanish orqali nafaqat o'z fikrini bildiradi, balki o'z davrining madaniy, axloqiy va ijtimoiy qiyofasini ham yaratadi. Shu sababli tilni ijtimoiy va madaniy jihatdan chuqur o'rganish — milliy o'zlikni anglashning eng ishonchli yo'llaridan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Elova D., Safarova G. *Sotsiolingvistika*. — Toshkent, 2022.
2. Dadaboyev H., Usmanova Sh. *Xorijiy sotsiolingvistika*. — Toshkent, 2014.
3. Labov W. *The Social Stratification of English in New York City*. — Cambridge University Press, 2006.

4. Yusupova G. *Tilshunoslikda gender tadqiqining nazariy asoslari*. — FLEDU jurnali, 2021.
5. Abdurazzoqov Y. *Sotsiolingvistika va lingvosotsiologiya*. — Openidea.uz, 2023.
6. Berdialiev A., Turdibekov M. *Sotsiolingvistika*. — Namangan, 2019.
7. Snell J. *Social Class and Language*. — HoP Press, 2020.